

O'rtachirchiq tumanidagi maktab bilan hamkorlik

Institutning "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti va Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumani Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 64-umumiy o'rta talim maktabi jamoalari o'rtasidagi hamkorlik doirasida fevral oyida "Traktorlar va avtomobillar" kafedrasida o'qituvchilarini maktabga tashriflari amalga oshirildi. 2021-yil 23-fevral kuni tashrifda dotsent Nuritov I. kafedra faoliyati haqida maktab jamoasiga batafsil ma'lumot berdi va ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish haqida o'zaro fikrlar bildirishdi.



Katta o'qituvchi Usmonov K. o'quvchilarga Fizika fanidan Ideal gaz qonunlari mavzusida dars mashg'uloti o'tib berdi. Assistent Xudayqulov R. o'quvchilar bilan traktorlar va avtomobillar paydo bo'lishi bilan bog'liq va boshqa qiziq ma'lumotlar haqida o'rtoqlashdi. Shuningdek, kafedra o'qituvchilari o'quvchilar guruhi bilan davra suhbatini o'tkazib, davra suhbatini davomida o'quvchilarning kelajakdagi orzulari haqida suhbatlashishdi, o'quvchilar o'z qiziqishlari hamda kelajakda maktabni tamomlab qaysi o'quv yurtlariga hujjat topshirishlari haqida so'zlab berishdi, davra suhbatini savol - javobga boy tarzda o'tdi. Suhbat oxirida kafedra tomonidan maktab kutubxonasi fondiga badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

TIQXMMI matbuot xizmati